SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SINDOROV RAJAPBOY ULUG‘BEK O‘G‘LI

LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLI BIRLIKLAR YORDAMIDA FRANSUZ TILINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (nofilologik oliy o‘quv yurtlari misolida)

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fransuz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.133:371(075)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the abstract of dissertation of a Doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Sindorov Rajapboy Ulug‘bek o‘g‘li
Lingvokulturologik xususiyatli birliklar yordamida fransuz tilini o‘qitishni takomillashtirish (nofilologik oliy o‘quv yurtlari misolida) 3

Синдоров Ражапбой Улугбек угли
Совершенствование преподавания французского языка с использованием единиц лингвокультурологического характера (на примере нефилологических высших учебных заведений) 23

Sindorov Rajapboy Ulugbek ogli
Improving the teaching of the French language using units of linguocultural nature (in the example of non-philological Higher Educational Institutions) 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SINDOROV RAJAPBOY ULUG‘BEK O‘G‘LI

LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLI BIRLIKLAR YORDAMIDA FRANSUZ TILINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (nofilologik oliy o‘quv yurtlari misolida)

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fransuz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped3172 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nazarov Pulat Djuramurodovich** pedagogoka fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Anorqulov Sanjar Iskandarovich** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Maksudova Hilola Ferdinantovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “23” noyabr soat 11:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66784 -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “5”. noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “5” noyabr dagi № 21 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida nofilologik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini o‘qitish sifatini oshirish, talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini real hayotiy muloqotga yaqinlashtirish pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda lingvokulturologik birliklarni talabalarning til bilish darajasi, kommunikativ ehtiyojlari hamda kasbiy yo‘nalishlariga mos tanlash, ularni darsning maqsad va mazmuniga integratsiyalash, mazkur birliklar asosida interfaol topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda ularning ta’limiy samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi fransuz tilini o‘qitish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli nofilologik oliy o‘quv yurtlarida fransuz tilini o‘qitishda lingvokulturologik xususiyatli birliklardan foydalanishning lingvodidaktik modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon ilmiy amaliyotida oliy ta’limda chet tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvni takomillashtirish, madaniyatlararo kommunikatsiya, kognitiv lingvistika, lingvomamlakatshunoslik, korpus texnologiyalari hamda raqamli ta’lim resurslari asosida kommunikativ ta’limni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda lingvokulturologik birliklar- frazeologizmlar, paremiyalar, realiyalar, pretsedent nomlar va milliy-madaniy konnotatsiyaga ega leksika asosida madaniyatlararo kompetensiya, tanqidiy fikrlash va madaniy savodxonlikni rivojlantirish, madaniy-lingvistik topshiriqlarni differensiallashtirish, kasbga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, elektron lug‘at va korpus resurslari yordamida madaniy mazmunni didaktik jihatdan moslashtirish hamda talabalarning o‘quv faoliyatini monitoring qilish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida raqamli ta’lim muhitlari, ochiq lingvistik korpuslar, generativ suni’iy intellekt hamda shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv o‘qitish vositalari asosida lingvokulturologik birliklardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, madaniyatlararo kommunikativ faoliyatni diagnostik baholash tizimlarini ishlab chiqish hamda ularning lingvodidaktik samaradorligini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, chet tillarini o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – suni’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat'iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Shunga muvofiq, nofilologik oliy o‘quv yurtlarida fransuz tilini o‘qitishda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 21-oktabrdagi “Sun’iy intellekt –yangi sivilizatdiya poydevori” nomli videoselektordagi nutqi https://zamin.uz/uz/texnologiya/164283-shavkat-mirziyoyev-suniy-intellekt-yangi-sivilizatsiya-poydevori.html (murojaat sanasi: 09.01.2026).

lingvokulturologik xususiyatli birliklardan didaktik maqsadlarga muvofiq foydalanish metodikasini ishlab chiqish, mazkur birliklar asosida talabalarning kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish, shuningdek, lingvokulturologik birliklardan foydalanish samaradorligini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish va ularni ta’lim amaliyotiga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar milliy metodik maktabni shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. J.J.Jalolov, I.M.Tuxtasinov, O‘.H.Hoshimov, I.Y.Yoqubov, Sh.S.Ashurov va G.T. Maxkamova[2] singari olimlarning ilmiy izlanishlari kommunikativ yondashuv, lingvomadaniy komponent, interaktiv metodlar, pedagogik vositalar, innovatsion texnologiyalar va o‘qituvchilar malakasini oshirish masalalariga qaratilgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, o‘zbek tilshunos olimlari Sh.Rahmatullayev, A.M.Bushuy, M.E.Umarxo‘jayev, A.E.Mamatov va O‘.Q.Yusupov o‘z ilmiy izlanishlarida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka katta ahamiyat berganlar[3].

[2] Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. -432 b.; Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков: Дисс. … докт. пед. наук (DSc). – Ташкент, 2018. – 203 с.; Ҳошимов Ў.Ҳ., Ёқубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 301 б.; Жалолов Ж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. English language teaching methodology. –Тошкент: Фан ва технология, 2015. – 338 б.

[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. -Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. - 379 б.; Бушуй А.М. Лексикографическая и библиографическая репрезентация фразеологии: Автореф. дисс. …

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari V.A. Vinogradov, V.A. Maslova, S.G. Ter-Minasova, V.V. Vorobyov, V.G. Gak, V.N. Teliya, A.G. Nazaryan va boshqa tadqiqotchilar lingvokulturologiya yo‘nalishining asosiy tamoyillariga tayangan holda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borganlar[4]. Xususan, V.G.Gak, A.G.Nazaryanlar aynan fransuz tili va madaniyati uyg‘unligini ta’minlovchi frazeologik va paremiologik birliklar ustida tadqiqotlar olib borishgani e’tiborga molikdir.

Lingvokulturologiya tushunchasi XXI asr boshlarida tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllana boshladi. Bu sohaning rivojlanishi va alohida ilmiy tarmoq sifatida tan olinishi xorijlik olimlar A. Martinet, G. Lakoff, M. Judith, N. Thomas, E. D. Hirsch, J. F. Kett, J. Trefil, M. Jonson va P.Gyuralarning ilmiy qarashlari hamda tadqiqotlari bilan bog‘liq[5]. Ular til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish zarurligini ta’kidlab, lingvokulturologiyaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilishiga katta hissa qo‘shganlar. Ularning ilmiy merosi nafaqat nazariy asoslarni mustahkamlagan, balki chet tillar ta’limida amaliy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Filologik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nofilologik oliy o‘quv yurtlarida lingvokulturologik xususiyatli birliklar yordamida fransuz tilini o‘qitishni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim tashkilotlarining nofilologik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning fransuz tilini o‘zlashtirishga hamda ushbu tilga xos bo‘lgan lingvomadaniy birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya darajasini aniqlash;

fransuz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan talabalarda til interferensiyasi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish va ularning sabablari hamda oqibatlarini dalillash;

докт. филол. наук. – Ленинград: ЛГУ, 1983. – 48 с.; Умарходжаев М.И. Основы фразеографии: Автореф. дисс.... докт. филол. наук. – М., 1981. –56 с.; Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 50 с.; Юсупов У.К..Проблемы сопоставительной лингвистики. –Ташкент: Фан, 1980. – 135 с.

[4] Виноградов В.А. и др. Социолингвистическая типология: Язык и общество; Типология коммуникативных средств. – М.: Наука, 1984. –128 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Тер - Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология. – М.: РУДН, 2008.- 336 с.; Гак В. Г. Языковые преобразования. – Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1998. –768 с.; Телия В.Н. Русская фразеология: Семантические, прагматические, лингвокультурологические аспекты. – М.: Школа „Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.; Назарян А. Г. Фразеология современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1987. – 288 с.

[5] Martinet A. Éléments de linguistique générale. – Paris: Armand Colin, 1980. – 226 p.; Lakoff G., Jonson M. Metaphors We live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.; Judith M., Thomas N. Intercultural communication in contexts. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 560 p.; Hirsch E.D., Joseph F. Kett, Trefil J. The new dictionary of Literacy. –Boston, 2002.; Guiraud P. Lexique du français moderne. – Paris: Payot, 1986. – 278 p.

o‘zbek va fransuz tillarida mavjud bo‘lgan madaniyatga oid til birliklari o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni ilmiy asosda solishtirish hamda talabalarning faol va nofaol lug‘at boyligini lingvomadaniy frazeologik va paremiologik birliklar asosida kengaytirish;

lingvomadaniy xususiyatga ega fransuz frazeologik va paremiologik birliklariga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda ularni amaliy ta’lim jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim tashkilotlarining nofilologik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan quyi 1-2-kurs bosqich talabalariga fransuz tilidagi lingvomadaniy birliklar, xususan, frazeologik va paremiologik birliklarni o‘rgatish jarayoni tanlangan.

Tadqiqot predmetini nofilologik oliy o‘quv yurtlarida fransuz tilini o‘qitish jarayonida lingvokulturologik xususiyatli birliklardan foydalanishning mazmuni, shakllari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabaning integrativ va instrumental motivatsiyasi hamda madaniy qiziqish yo‘nalishiga ko‘ra differensiallashtirilgan “Kommunikativ madaniy ko‘nikmalar” mashqlar tizimi ishlab chiqilib, uning qo‘llanilishi talabaning shaxsiy qiziqish profiliga mos, til va madaniyatni ajratmagan holda amalga oshiriladigan integrativ o‘zlashtirishni ta’minlashi isbotlangan;

frazeologik birlikdagi milliy obrazni tilga moslamasdan so‘zma-so‘z ko‘chirishdan kelib chiqadigan “obraz ko‘chirish xatosi”, fransuz va o‘zbek frazeologik birliklarini obrazli-konseptual asoslari bo‘yicha qiyoslovchi kontrastiv tahlil asosida aniqlanib, uni bartaraf etuvchi obrazni ajratish, ikki til obrazi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash va milliy obrazga ongli almashtirish bosqichlaridan iborat “obraz almashtirish texnikasi” asosida mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

“madaniy konseptual faollashuv” mezoni baholash predmetini frazeologik birlikning leksik-grammatik to‘g‘riligidan uning ortidagi madaniy konseptni talaba ongida faollashtirish darajasiga, ya’ni birlikning passiv ravishda tanilgan shakl sifatida qolganligi yoki faol konseptual bilim sifatida yangi kontekstda mustaqil qo‘llanilishiga ko‘chiradi va buni uch bosqichli “yuzaki-leksik, qisman-konseptual, chuqur-faollashgan” shkala orqali o‘lchaydi, bu esa kognitiv semantika va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalari kesishmasida yangi baholash predmeti sifatida nazariy asoslangan;

“Qadriyat-Ko‘prik Modeli” ishlab chiqilgan bo‘lib, u yadro-aniqlash, obraz-tafovut, ko‘prik-konstruksiyalash va kontekstual faollashtirish komponentlari orqali semantik jihatdan yaqin, ammo obrazli-qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha farqli - masalan, “o‘zbek tilida kollektivlik-iyerarxiya, fransuz tilida individualizm-ratsionallik” frazeologik-paremiologik birliklarni talaba ongida assotsiativ bog'lab

o‘zlashtirishni ta’minlashi frazeologik va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi isbotlangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun fransuz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda fransuz madaniyatiga asoslangan leksik materiallarni o‘zlashtirish, so‘z boyligini kengaytirish hamda til kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiya ishlab chiqildi, mazkur texnologiya leksik birliklarni kommunikativ va madaniy kontekstda samarali egallash imkonini yaratadi va natijada, talabalarning fransuz tilida muloqot qobiliyati va madaniy anglashi sezilarli darajada yaxshilanishiga erishilgan;

frazeologik hamda paremiologik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali mexanizmlari tadqiq etildi, shuningdek, talabalar nutqiy faoliyatini faollashtirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va til birliklaridan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi ishlab chiqilgan hamda o‘quv samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator nazariy va amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan;

talabalar uchun lingvokulturologik mazmundagi til birliklarini tanlash davomida fransuzcha o‘zbekcha frazeologik va paremiologik lugat-minimum tuzish orqali ularning semantik va madaniy jihatlari sistematik tarzda tahlil qilingan, shuningdek, talabalarning so‘z boyligini oshirish va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini chuqurlashtirish imkonini beruvchi fransuz tilidagi frazeologik va paremiologik birliklarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan boyitilgan lug‘at-minimum shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fransuz tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida madaniyatga xos til birliklarining funksional va semantik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish asosida lingvomadaniy yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini yanada takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natija va xulosalardan madaniyatga oid til birliklari yordamida fransuz tili lug‘at boyligini oshirishga mo‘ljallangan maxsus metodik ishlanmalar tayyorlashda, ta’lim jarayonida, xususan, chet tillarni o‘qitish, lingvomadaniyatshunoslik, frazeologiya, paremiyologiya, lingvomadaniy birliklar asosidagi tanlov fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, kurs va malakaviy ishlar yozishda, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda, maxsus kurslar o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lingvomadaniy qiymatga ega til birliklaridan fransuz tilini chet tili sifatida o‘qitish faoliyatida amaliy foydalanish, ushbu birliklarni zinama-zina ko‘rinishida talabalarga taqdim etib borish, har bir

bosqichga mos keluvchi mashqlar tizimini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish borasida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

talabaning integrativ va instrumental motivatsiyasi hamda madaniy qiziqish yo‘nalishiga ko‘ra differensiallashtirilgan “Kommunikativ madaniy ko‘nikmalar” mashqlar tizimi ishlab chiqilib, uning qo‘llanilishi talabaning shaxsiy qiziqish profiliga mos, til va madaniyatni ajratmagan holda amalga oshiriladigan integrativ o‘zlashtirishni ta’minlashi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2026-yil 23-martdagi 271/01-01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, til korpusi doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar to‘plamlarining hamda monografiya va darsliklarning ilmiy saviyasini oshirishga erishilgan;

frazeologik birlikdagi milliy obrazni tilga moslamasdan so‘zma-so‘z ko‘chirishdan kelib chiqadigan “obraz ko‘chirish xatosi”, fransuz va o‘zbek frazeologik birliklarini obrazli-konseptual asoslari bo‘yicha qiyoslovchi kontrastiv tahlil asosida aniqlanib, uni bartaraf etuvchi obrazni ajratish, ikki til obrazi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash va milliy obrazga ongli almashtirish bosqichlaridan iborat “obraz almashtirish texnikasi” asosida mashqlar tizimi ishlab chiqilganligi haqidagi xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800- 21-GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2026-yil 6-apreldagi 04/3185-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan o‘quv jarayoni uchun tayyorlangan ilmiy maqolalar va monografiyalarning ilmiy saviyasini oshirishga erishilgan;

“madaniy konseptual faollashuv” mezoni baholash predmetini frazeologik birlikning leksik-grammatik to‘g‘riligidan uning ortidagi madaniy konseptni talaba ongida faollashtirish darajasiga, ya’ni birlikning passiv ravishda tanilgan shakl sifatida qolganligi yoki faol konseptual bilim sifatida yangi kontekstda mustaqil qo‘llanilishiga ko‘chiradi va buni uch bosqichli “yuzaki-leksik, qisman-konseptual, chuqur-faollashgan” shkala orqali o‘lchaydi, bu esa kognitiv semantika va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalari kesishmasida yangi baholash predmeti sifatida nazariy asoslanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida I-204-4-5 Ingliz tili mutaxasislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 11-apreldagi 955/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan o‘quv jarayoni uchun tayyorlangan vebinar darslarini yangicha yondashuvlar asosida modernizatsiyalash, talabalarda fransuz tilida gapirish va yozishga motivatsiyani oshirishda yordam beradigan usullarni ishlab chiqish imkonini bergan;

“Qadriyat-Ko‘prik Modeli” ishlab chiqilgan bo‘lib, u yadro-aniqlash, obraz-tafovut, ko‘prik-konstruksiyalash va kontekstual faollashtirish komponentlari orqali semantik jihatdan yaqin, ammo obrazli-qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha farqli – masalan, “o‘zbek tilida kollektivlik-iyerarxiya, fransuz tilida individualizm-ratsionallik” frazeologik-paremiologik birliklarni talaba ongida assotsiativ bog‘lab o‘zlashtirishni ta’minlashi frazeologik va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi isbotlanganligi haqidagi xulosa va natijalardan Samarqand viloyat teleradio kompaniyasining 2023-yil 26-yanvardagi “Xayrli tong” eshittirishini efirga uzatishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-yanvardagi 01-07/11-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvning konseptual samaradorligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, hamda 4 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokama qilinib, ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, ishning asosiy matni 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va himoyaga olib chiqilgan asosiy mazmunlar bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Lingvomadaniy birliklarning chet tilini o‘qitish jarayonidagi nazariy ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida jahon tilshunoslarining lingvokulturologiya tushunchasi lingvistik asoslari va metodik talqini yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Chet tilini o‘qitishda lingvomadaniy birliklarga asoslangan nazariy yondashuv va nofilologik oliy ta’lim yo‘nalishlarida lingvomadaniy birliklar asosida chet tilini o‘qitishning metodik xususiyatlarini talqin qilish bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlarning sharhi berilgan. Fransuz tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda interferensiya jarayonining lingvodidaktik muammolari bo‘yicha ishlardagi muhim yo‘nalishlar, munozarali va hal qilinmagan masalalar, shuningdek, amalga oshirilayotgan tadqiqotning nazariy asoslari aniqlangan.

Bugungi kunda tilshunoslik an’anaviy struktural va funksional yondashuvlar bilan cheklanmay, yangi ilmiy paradigmalarga asoslangan mustaqil tarmoqlarni shakllantirmoqda. Tilning formal-struktural tomonlari bilan birga uning kognitiv, psixologik, sotsiologik, madaniy, neyrofiziologik va texnologik qirralarini chuqur tadqiq etishga qaratilgan yo‘nalishlar zamonaviy lingvistikaning taraqqiyot poydevorini tashkil etadi. Bu jarayon lingvistikaning nazariy fan sifatidagi mavqeyini saqlagan holda uni ko‘p tarmoqli va amaliy ahamiyat kasb etuvchi soha sifatida rivojlantirmoqda. Shu tariqa, zamonaviy yo‘nalishlar tilni inson faoliyatining turli jihatlari bilan uzviy aloqada yoritish imkonini bermoqda.

XIX asr tilshunosligi yangi metodologik yondashuvlar va ilmiy paradigmalarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda tilni faqat fonetika, morfologiya va sintaksis kabi formal jihatlar doirasida emas, balki inson faoliyati, tafakkuri va madaniyati bilan bog‘liq holda tadqiq etishga e’tibor qaratildi. Natijada, antroposentristik paradigma shakllanib, tilni inson omili va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy aloqada o‘rganish yo‘nalishi kuchaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda bir qator mustaqil tarmoqlar shakllandi. Xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillarning tarixiy taraqqiyoti va qarindoshligini aniqlashga, pragmatik lingvistika til birliklarining nutq jarayonidagi maqsadga yo‘naltirilganligi va kommunikativ vaziyatga mosligini tahlil qilishga qaratildi. Kognitiv lingvistika til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy muhit va kommunikativ jarayonlar bilan munosabatini, psixolingvistika esa tilni o‘zlashtirish va nutq jarayonlarining psixologik mexanizmlarini o‘rgandi. Lingvomamlakatshunoslik esa til orqali milliy madaniyat va etnomadaniy xususiyatlarni tadqiq etishga yo‘naltirildi.

Bugungi kunda ushbu yo‘nalishlar o‘zining ilmiy kategoriyalari, tadqiqot metodlari va nazariy asoslariga ega bo‘lgan mustaqil fan tarmoqlari sifatida shakllangan. Ularning rivojlanishi tilshunoslikni ko‘p qirrali, inson faoliyatining turli jabhalari bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish imkonini bermoqda.

Yuqorida qayd etilgan tilshunoslik yo‘nalishlari orasida *lingvomadaniyatshunoslik* alohida ilmiy qiymatga ega bo‘lib, u til orqali xalqning madaniy merosi, qadriyatlari va milliy tafakkuri qanday ifodalanishini tadqiq etadi. Ushbu soha insonlarning ijtimoiy hayoti, an’analari, urf-odatlari hamda mentaliteti tilda qanchalik mustahkam o‘z aksini topishini o‘rganadi. Shu jihatdan lingvomadaniyatshunoslik tilni nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyatni tashuvchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan olimlardan biri Csaba Földes bo‘lib, u o‘zining “Sprache – Interaktion – Kultur: ein Beitrag zur Problemde-konstruktion anhand des Paradigmas Linguokulturologie” nomli maqolasida til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi haqida shunday fikr bildiradi: “Til va madaniyat bir-biri bilan shunday uyg‘unlashib ketganki, bunda til o‘zining sof kodlangan xarakterini yo‘qotib, kommunikativ muloqot jarayonida frazeologik, paremiologik va metaforik unsurlar bilan chambarchas qorishib ketadi”[6].

[6] Földes Ch. Sprache – Interaktion – Kultur: Ein Beitrag zur Problemdekonstruktion anhand des Paradigmas Linguokulturologie // Ulrike Simon (Hg.): Facetten der Mehrsprachigkeit aus theoretischer und unterrichtspraktischer Sicht. – Münster; New York: Waxmann, 2019. – S. 92.

20-asrning oxirgi o‘n yilliklarida sobiq Ittifoq hududida keng qo‘llanilgan va bugungi kunda ham ayrim mamlakatlar tilshunosligida faol ishlatilayotgan “lingvokulturologiya” atamasi aslida til va madaniyatning o‘zaro munosabatini ifodalovchi tushunchani anglatadi. Garchi mazkur atama 20-asr oxirlarida ilmiy muomalaga kirgan bo‘lsa-da, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi bundan ancha ilgari – 19-asrdayoq buyuk nemis olimi Wilhelm von Humboldt asarlarida keng yoritilgan edi.

Humboldt nazariyasiga ko‘ra, milliy xarakter nafaqat shaxsning tashqi ko‘rinishi, yuz ifodasi, tana tuzilishi yoki xulq-atvorida, balki uning axloqiy qadriyatlari, turmush tarzi hamda yaratgan ijodiy mahsulotlarida ham o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda, til inson tafakkurining ko‘zgusi bo‘lib, milliy madaniyatni ifodalashda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.[7]

Samarali kommunikativ muloqot madaniyatlararo bilim va tajribaga chambarchas bog‘liqdir. Yu.A. Vorobyovning ta’kidlashicha, insonlarning ma’lum tematik sohalar bo‘yicha bilim darajasi va lingvomadaniy malakalardagi o‘xshashlik darajasi o‘zaro tushunishni yengillashtiradi. Bu esa muloqot jarayonida obyektni faqat alohida xususiyatlari emas, balki yaxlit holda anglash imkonini yaratadi. Demak, lingvomadaniy kompetensiyaning rivoji nafaqat tilni, balki madaniyatni ham puxta o‘zlashtirishga, shu orqali samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi[8].

Tilni o‘rganayotgan muhitda yashash va til egalari bilan muloqot qilish shaxsga grammatik tuzilish bilan birga madaniy semantikani ham o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada til tabiiy va erkin qo‘llanadi. Demak, xorijiy tilni samarali o‘rganish lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish va madaniyatlararo muloqot tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, xorijiy tilni mukammal o‘rganishda va o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan yaqindan tanishishda lakuna va realiyalarning o‘rni beqiyosdir. “Lakuna”[9] atamasi ilk bor asli kanadalik tilshunoslar J. P. Vine va J. Darbel[10] tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, hozirda dunyoning ko‘plab tilshunos olimlari tomonidan ijobiy tarzda e’tirof etilmoqda. Ushbu atama ostida boshqa tillarda to‘laqonli muqobiliga ega bo‘lmagan lug‘aviy birliklar tushuniladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida “lakunologiya”, “lakunarlik fenomeni”, “lakunar birlik” kabi atamalar qo‘llanilib, xorijiy tillar materiali asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu holat lakuna hodisasining nazariy hamda amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. G.V. Bikova fikriga ko‘ra, lakuna – moddiy shaklda mavjud bo‘lmagan, biroq kommunikativ talab asosida sintaktik darajada voqelanuvchi virtual leksik mohiyatdir[11].

Lakunalarning xususiyati shundaki, ular ayrim tillarda “alohidalik” sifatida namoyon bo‘lsa, boshqalarida ifodalanmaydi va barqaror shaklga ega emas.

---

[7] Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 451 с.
[8] Воробьев, В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 336 с.
[9] https://uz.wikipedia.org/wiki/Lakuna
[10] Винай Ж.П., Дарбельне Ж. Стилистика сравнения: пер. с фр. / под ред. В.Н. Комиссарова. – М.: Прогресс, 1986. – 288 с.
[11] Быкова Г. В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: БГПУ, 2003. – 51 с.

“Lakuna” tilshunoslikda murakkab hodisa bo‘lib, bir tomondan, mavjud predmetni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, yo‘q ma’no yoki tizimli bo‘shliqni ifodalaydi. Shu sababli, tillararo qiyoslashda turli talqin va qarashlarga sabab bo‘ladi.

Odatda, ma’lum bir tilda lakuna sifatida namoyon bo‘ladigan frazeologik va paremiologik birliklar onomasiologik belgi sifatida kishi ongida o‘ziga xos lingvistik va madaniy ma’no hosil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologiya va paremiologiya doirasidagi bunday birliklar semantik jihatdan madaniy qatlamlar va kodlarni o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni ular til bilan madaniyatning uzviy bog‘liqligini ifodalaydi.

V.N. Teliya frazeologik va paremiologik birliklarning ahamiyatini ilmiy asoslab, ularning semantikasi denotativ, grammatik, baholovchi va emotiv ma’nolardan tashkil topishini ko‘rsatgan. Olimning ta’kidlashicha, lingvomadaniy sharh frazeologik birliklarning ichki shaklini ochib beruvchi va madaniyat qatlamlarini aks ettiruvchi makrokomponent sifatida xizmat qiladi[12].

Madaniyat inson faoliyati va jamiyat rivojlanishining tizimli ifodasi bo‘lib, moddiy va ma’naviy qatlamlari o‘zaro uyg‘unlikda mavjud. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo munosabatlar muhim, biroq tushunmovchiliklar madaniy ixtiloflarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta’lim tizimida shaxsni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.

Xorijiy tillarni o‘rganishda esa nafaqat til ko‘nikmalarini egallash, balki mahalliy til, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va jahon madaniyati haqidagi bilimlar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va an’analardan samarali foydalanish zaruriy hisoblanadi. Zero, chet tillarni bilish shaxsning umumiy madaniyati va ma’lumotlilik darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezonlardan biridir.

“Lingvokulturologiya” atamasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida rus va slavyan tilshunoslari tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunda shaxs kamolotida muhim ijtimoiy fan sifatida qaraladi. Shu bois, xorijiy tillarni madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda, ilmiy asoslangan nazariy baza asosida o‘qitish dolzarb vazifa hisoblanadi. Lingvokulturologiya atamasi Yevropa mamlakatlarida boshqacha nomlar bilan ifodalanadi. Masalan, fransuz tilida bu tushuncha o‘rnida “le rapport entre langue et culture” (til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat) yoki “unité de langue et de culture” (til va madaniyatning uzviy birligi) kabi iboralar ishlatiladi.

Shuningdek, ayrim olimlar lingvokulturologiyani til ta’limiga oid qiziqishga yo‘naltirilgan, katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan alohida fan sifatida baholashadi. Shu nuqtai nazardan, P.N. Donets, D.I.Bashurina va V.V.Vorobyov[13] kabi rus olimlari lingvokulturologiyani til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqalarni tadqiq etuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida yuqori baholashgan.

---

[12] Телия В.Н. Русская фразеология: Семантические, прагматические, лингвокультурологические аспекты. – М.: Школа „Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

[13] Донец П. Н. Теория межкультурной коммуникации: специфика культурных смыслов и языковых форм: Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 44 с.; Башурина Д. И. Формирование лингвокультурологической компетенции иностранных студентов-филологов при обучении русским паремиям: Дисс. … канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 242 с.; Воробьев В. В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 336 с.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologik yondashuv so‘nggi o‘n yilliklarda shakllanib, ilmiy muomalaga kirib keldi. 2010-yilda Z.I. Soliyevaning doktorlik dissertatsiyasida axloqiy-ta’limiy mazmundagi kichik matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari lingvistik jihatdan tadqiq etilib, bu ish mazkur yondashuvni amaliy qo‘llashning dastlabki namunasiga aylandi[14].

Tadqiqotning **“Milliy-madaniy birliklar va maqollar asosida fransuz tili ta’limini tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobi madaniyatga oid ibora va maqollarning fransuz tilini o‘qitish jarayonidagi lingvodidaktik funksiyalari, fransuz milliy madaniyatining ibora va maqollarda aks etishining lingvokulturologik talqini, grammatik mavzularni o‘zlashtirish jarayonida fransuz tilidagi ibora va maqollardan foydalanish imkoniyatlari, fransuz tili ta’limida lingvomadaniy xususiyatli ibora va maqollardan foydalanishga doir amaliy metodik tavsiyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Fransuz xalqining shakllanish jarayoni roman va german tillarida so‘zlashuvchi aholi o‘rtasidagi uzoq muddatli madaniy hamkorlik va ijtimoiy integratsiya bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayon natijasida zamonaviy fransuz xalqi va madaniyati shakllangan. Shu bois, Fransiyaning turli hududlarida kuzatiladigan madaniy xilma-xillik ayrim hollarda “madaniy to‘sqinliklar” (cultural shock)ni keltirib chiqarishi tabiiydir.

Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, fransuz millatining shakllanishi german qabilalaridan biri bo‘lgan franklar bilan chambarchas bog‘liqdir. Miloddan avvalgi davrlardan boshlab esa hozirgi Fransiya hududida gal qabilalari istiqomat qilgan. Qiziq tomoni shundaki, internet va tarixiy-lingvistik manbalarda qayd etilishicha, lotin tilida “gal” so‘zi “xo‘roz” ma’nosini anglatadi. Shu bois, fransuzlar qadimdan xalq orasida “xo‘roz” timsoli bilan bog‘lab eslatib kelingan.

Xo‘roz obrazi fransuz xalqining milliy ramzlaridan biriga aylangan bo‘lib, ularning o‘ziga xos xarakterini – g‘urur, matonat va qaddini tik tutish kabi sifatlarni ifodalaydi. Shu sababli ham bugungi kunda xo‘roz Fransiyaning nafaqat tarixiy-madaniy belgisi, balki sport ramzi, turli madaniy tadbirlar va davlat timsollarida ham keng qo‘llaniladi[15].

Fransiya Respublikasida davlat tili fransuz tili bo‘lsa-da, mamlakatda lingvistik va madaniy xilma-xillik saqlanib qolgan. Aholining asosiy qismi (88%) fransuz tilida so‘zlashsa-da, ayrim hududlarda alleman, flamon va italyan kabi mintaqaviy tillar qo‘llanadi. Bu holat Fransiyada til va madaniyat uyg‘unligi orqali milliy o‘ziga xoslikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Fransuz oilaviy madaniyati tarixan keng va ko‘p avlodli oilalar shaklida mavjud bo‘lgan. Globallashuv va madaniy almashinuvning kuchayishi natijasida esa zamonaviy Fransiyada oilaviy tuzilmalarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda: to‘liq bo‘lmagan oilalar va fuqarolik uyushmalari shaklidagi oilaviy birliklar soni ortib bormoqda. Bu jarayon an’anaviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Shu bois, ta’lim jarayonida fransuz oilasining qadimiy qadriyatlari va

[14] Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГЮМЯ, 2010. – 25 с.

[15] https://europeancenter.tufts.edu (murojaat sanasi: 10.12.2023).

ijtimoiy an’analariga e’tibor qaratish muhimdir. Tarixan ayolning oiladagi hurmati va mas’uliyati, erkakning esa oila himoyasi va moddiy-ma’naviy ta’minotdagi roli alohida qadrlangan. Demak, fransuz oilasining tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil etish milliy mentalitet va madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fransiya Respublikasi shiori – “Ozodlik, tenglik, birodarlik” – millatning tarixiy taraqqiyoti va fuqarolik madaniyatini belgilovchi asosiy qadriyatdir. Fransuzlarning muloqot madaniyati ham milliy xususiyatga ega: norasmiy muhitda yonoqdan o‘pish samimiylik ramzi bo‘lsa, rasmiy vaziyatlarda qo‘l siqish va “Bonjour, Madame / Monsieur” kabi murojaatlar odat tusiga kirgan. Umuman olganda, fransuz ijtimoiy qadriyatlari tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, zamonaviy davrda global jarayonlar va madaniy xilma-xillik ta’sirida boyib bormoqda.

Fransuzlar bilan muloqotda oddiy hazil emas, balki intellektual va satirik mazmundagi hazil afzal ko‘riladi. Shu sababli, suhbat samaradorligi uchun fransuz madaniyati, tarixi va siyosati bo‘yicha umumiy bilimlarga ega bo‘lish muhim bo‘lib, bu muloqotni mazmunli va davomli qiladi[16].

Fransuz madaniyati geografik joylashuv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mamlakat hududi Atlantika okeani, O‘rta Yer dengizi va La-Mansh bo‘g‘ozi bilan o‘ralgan. Bu tabiiy-geografik sharoit fransuzlarning muloqot uslubi, kiyim-kechak madaniyati, ovqatlanish odatlari va ijtimoiy faoliyatlarida suv, dengiz va dengiz hayvonlariga oid ramzlarning ustuvorligini ta’minlagan. Shu sababli, okean, dengiz, daryo va sohil tushunchalari milliy identitet va madaniy o‘zlikning muhim belgisi hisoblanadi.

Frazeologik va paremiologik birliklar xalq madaniyati, jumladan, kiyinish an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek tilidagi ko‘plab ibora va maqollarda to‘n, chopon, do‘ppi, qalpoq, salla, kavush, belbog‘ kabi milliy libos nomlari asosiy semantik vosita sifatida ishlatiladi. Masalan: to‘nini teskari kiyib olmoq (ikkiyuzlamachilik, munofiqlikni bildiradi); choponga o‘rab gapirmoq (so‘zini ochiq aytmaslik, bilintirmay gapirish); do‘ppisini (qalpog‘ini) osmonga otmoq (juda quvonmoq, shodlanmoq); do‘ppisi yarimta (ahmoqlik, aqlsizlikni anglatadi); do‘ppi tor kelganda (noqulay vaziyatga tushmoq); salla desa, kallani olib kelmoq (masalaning mohiyatini noto‘g‘ri tushunmoq); paytavasiga qurt tushmoq (xotirjamlikni yo‘qotmoq, xavotirga tushmoq); belida belbog‘i bor (kuchli, bardam, qo‘rqmas odam); kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq (biror narsaga tayyor turmoq yoki sirni ochmoq)[17].

Ushbu birliklar xalqning turmush tarzi va an’anaviy kiyinish madaniyatini aks ettirish barobarida, inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlarga oid xilma-xil ma’nolarni ham ifodalaydi.

Fransuz tilidagi bosh kiyim (chapeau, bonnet) bilan bog‘liq bir qancha frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ular xalq tafakkurida shlyapaning nafaqat kiyim,

---

[16] https://uzbek.life/oz/news/fransiyada-hayot-kechirish-sizni-qanday-sarf-xarajatlar-kutmoqda (murojaat sanasi: 10.05.2023).

[17] Nazarov P. J. O‘zbek milliy kiyim-kechaklari asosida hosil qilingan paremiya va frazemalar tavsifi // “Замонавий лингвистик тадқиқотлар: Хорижий тажрибалар, истиқболли изланишлар ва тилларни ўқитишнинг инновацион усуллари” мавзусidagi халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд, 2022. – Б. 175–176.

balki ramziy ma’noda ham katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Quyida ayrim misollar: *jeter son bonnet par-dessus les moulins* (so‘zma-so‘z: shlyapani shamol tegirmoni ustiga tashlamoq] – ayollarning odob-axloq qoidalariga bo‘ysunmasligini bildiradi; *mettre son bonnet de travers* - [so‘zma-so‘z: shlyapani qiyshaytirib kiymoq] – chap oyog‘i bilan turmoq, ya’ni kayfiyati yomon bo‘lishni ifodalaydi; *avaler [manger] son chapeau* - [so‘zma-so‘z: shlyapasini yutib yubormoq] – o‘zining xatosini yoki yutqazganini tan olishni anglatadi.

Paremiologik va frazeologik birliklarning ilmiy talqini tilshunoslikda turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirgan. Har bir olimning mazkur birliklarga bergan ta’rifi ularning mazmuniy va funksional xususiyatlariga bo‘lgan qarashlaridan dalolat beradi. Masalan, N.I. Tolstoy[18] bunday birliklarni *xalqning muqaddas iboralari* – (sakrale volkstümliche Phraseologie) sifatida talqin etib, ularning diniy-mifologik ildizlarga ega ekanligini va xalq ruhiyati bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu yondashuvda paremiologik birliklar xalq tafakkurining muqaddas ramzlari sifatida qaraladi.

V.M. Mokienko esa mazkur birliklarni jamiyatning madaniy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi idiomatik shakllar sifatida izohlaydi.[19] Uning qarashida, paremiologik va frazeologik birliklar nafaqat til hodisasi, balki xalqning ma’naviy-madaniy boyligini ifodalovchi kod sifatida namoyon bo‘ladi.

V.A. Maslova ta’rifiga ko‘ra, frazeologik birliklar ko‘pincha asotiriy mazmunga ega bo‘lib, ular mifologik dunyoqarashning til orqali saqlanib qolgan shakllaridir. Bu qarash folklor va mifologiyaning til tizimidagi o‘rnini ochib beradi[20].

Frazeologik birliklar turli struktural tipdagi so‘zlarning alohida yozilgan, barqaror birikmalari bo‘lib, ularning komponentlari yagona tarzda uchrashmaydi, mazmuni esa komponentlarning semantik o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Chernishovaning ta’kidlashicha, frazeologik birliklar – bu barqaror, o‘zgaruvchan bo‘lmagan, alohida komponentlardan tashkil topgan, ammo umumiy ma’nosi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan kelib chiqmaydigan til birliklaridir[21]. Bu ta’rif frazeologiyaning semantik asosini aniqlashda ham, FBlarni boshqa til birliklaridan ajratishda ham metodologik ahamiyatga ega.

V. M. Mokienko[22] frazeologik birliklarni xalq tafakkuridagi murakkab tizim sifatida “qora quti”ga qiyoslaydi. Bu birliklar tilning oddiy yig‘indisi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, milliy xarakteri va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan semantik qobiq vazifasini bajaradi.

P. Nazarov ta’kidlaganidek, leksik, frazeologik va paremiologik birliklarni turli tillarda qiyoslash talabalarda kognitiv bilimlarni mustahkamlash bilan birga, mantiqiy tafakkur, tahliliy fikrlash va lingvokulturologik dunyoqarashni rivojlantiradi. Qiyosiy tahlil orqali talaba tilning ichki qonuniyatlari, semantik

---

[18] Толстой Н. И. Язык и культура (некоторые проблемы славянской этнолингвистики) // Zeitschrift für slavische Philologie. – Heidelberg, 1990. – Bd. 50. – Hft. 2. – S. 238–253.

[19] Мокиенко В. М. Проблемы фразеологической и лексической семантики. – М., 2004. – 284 с.

[20] Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

[21] Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1970. – 200 с.

[22] Мокиенко В. М. Проблемы фразеологической и лексической семантики. – М.: ИТИ ТЕХНОЛОГИИ, 2004. – 284 с.

umumiylik va farqlilik hamda milliy-madaniy xususiyatlarini anglaydi, natijada madaniyatlararo muloqotda zarur bo‘lgan madaniy kompetensiyani shakllantiradi[23].

